2022 yildagi murojaatlar tahlili — R. Eshbekov (brifing)

// 05 January 2023 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/video/2022-yildagi-murojaatlar-tahlili-brifing

“O‘zkimyosanoat” AJga o‘tgan yilda Prezident virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan 226 ta murojaatning 35 tasi qanoatlantirilgan. Bu haqda AOKAda o‘tkazilgan brifingda aksionerlik jamiyati axborot xizmati rahbari Rustambek Eshbekov ma’lum qildi: Shuningdek, 183 tasi bo‘yicha tushuntirish berilgan, 5 tasi rad etilgan, 8 tasi ko‘rib chiqilmoqda. Murojaatlarning aksariyati Navoiy, Qashqadaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida yashovchi fuqarolarga to‘g‘ri keladi. 2022-yil davomida “O‘zkimyosanoat” AJ ijro apparatiga kelib tushgan jami murojaatlar soni 528 tani tashkil etib, 129 tasi yuridik shaxslardan, 399 tasi jismoniy shaxslardan kelib tushgan. Jami murojaatlarning 84 tasi qanoatlantirilgan, 429 tasi bo‘yicha tushuntirish berilgan, 15 tasi ko‘rib chiqilmoqda.